ISSN:2828-6235
Impact factor:13.77

International Journal of Literature and Language Studies(IJLLS)

O‘ZBEKISTON TA’LIM TIZIMIDA XALQARO BAHOLASH DASTURLARINING AHAMIYATI VA ULARNING BOSHLANG‘ICH TA’LIMGA TA’SIRI

Abdullayeva Nargiza Roxataliyevna
Qo’qon davlat universiteti boshlang’ich ta’lim kafedrasi v.v.b. dotsenti
Gmail: abdullayevanargiza8007@gmail.com,
https://orcid.org/0009-0003-8346-0706,
Tel: +998903048007
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.23721490

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekiston ta’lim tizimida xalqaro baholash dasturlari PISA, PIRLS va TIMSSning mazmuni, maqsadi hamda ular asosida ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan islohotlarning ahamiyati yoritilgan. Boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘quvchilarning savodxonlik, mantiqiy fikrlash, matn bilan ishlash, matematik savodxonlik kabi ko‘nikmalarini aniqlashda xalqaro baholash dasturlarining roli tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu dasturlarning O‘zbekistonda tatbiq etilishi, o‘qituvchilar malakasini oshirishga ta’siri va o‘quv jarayoniga kiritilayotgan o‘zgarishlar ilmiy asosda sharhlanadi.

Kalit so‘zlar: PISA, PIRLS, TIMSS, kreativlik, muammo, ijodiy fikr, kreativ fikrlash, ijodiy qobiliyat, idrok qilish, ijodiy faollik, ko’nikma, malaka, mantiqiy fikrlash

Аннотация: В данной статье раскрываются содержание и цели международных программ оценки PISA, PIRLS и TIMSS в системе образования Узбекистана, а также значение реформ, направленных на повышение качества образования на основе результатов этих исследований. Анализируется роль международных программ оценки в определении уровня сформированности у учащихся начальных классов таких навыков, как грамотность, логическое мышление, работа с текстом и математическая грамотность. Кроме того, на научной основе рассматриваются внедрение данных программ в Узбекистане, их влияние на повышение квалификации учителей и изменения, вносимые в образовательный процесс.

Ключевые слова: PISA, PIRLS, TIMSS, креативность, проблема, творческое мышление, творческая идея, творческие способности, восприятие, творческая активность, навыки, компетенции, логическое мышление.

Abstract: This article examines the content and objectives of the international assessment programmes PISA, PIRLS, and TIMSS within Uzbekistan’s education system, as well as the importance of reforms aimed at improving the quality of education based on these assessments. It analyzes the role of international assessment programmes in identifying primary school students’ levels of literacy, logical reasoning, text comprehension, and mathematical literacy. Furthermore, the article provides a scientific overview of the implementation of these programmes in Uzbekistan, their impact on teacher professional development, and the changes being introduced into the educational process.

Keywords: PISA, PIRLS, TIMSS, creativity, problem, creative thinking, creative idea, creative abilities, perception, creative engagement, skills, competencies, logical reasoning.

Bugungi kunda uzluksiz ta’lim jarayonida barcha fanlarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Maktabdagi darslarni sifatli tashkil etish esa avvalambor pedagoglarimizni ijodkor bo‘lishiga undaydi. Dars jarayonidagi faqat yodlashga qararilgan topshiriqlarning bo‘lishi, o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatini o‘stirishga to‘sqinlik qilmoqda. Bugungi kundagi davr talabiga mos kreativ fikrlaydigan o‘quvchilarni yaratish dolzarb vazifamizdir. Buning uchun avvalo pedagog-ustozlarimizning o‘zlari ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish hamda fanlariga oid bo‘lgan yangi ma‘lumotlardan xabardor bo‘lgan holda darslarda amaliy qo‘llab borishlari zarurdir. Zamonaviy dunyoda ta’lim sifati nafaqat milliy darajada, balki xalqaro miqyosda ham baholanadi. O‘zbekiston so‘nggi yillarda ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarning kompetensiyalarini rivojlantirish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga alohida e’tibor qaratmoqda. Bunda PISA (Programme for International Student Assessment), PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study), TALIS(The Teaching and Learning International Survey) va TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study) kabi dasturlar o‘quvchilarning nafaqat bilimini, balki ularni amaliy hayotda qo‘llash, muammoni hal etish va kreativ fikrlash qobiliyatlarini o‘lchaydi.

Davlatimizda ta’lim sifatini baholashning xalqaro mezonlarini joriy etish bo‘yicha qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, Prezidentning 2018-yil 12-dekabrdagi PQ-4064-son qarori, 2020-yil 24-avgustdagi 997-son qarori orqali xalqaro baholash dasturlari bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar belgilandi. Bu esa boshlang‘ich ta’lim mazmunini yangilash, o‘quv dasturlarini optimallashtirish hamda o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish zaruriyatini keltirib chiqardi.

PISA (Programme for International Student Assessment) 15 yoshli o‘quvchilarning funksional o‘qish savodxonligini, matematik savodxonligini, tabiiy fanlar bo‘yicha yangiliklarni tahlil qilish kompetensiyalarini baholaydi.

PISA o‘quvchining faktlarni yod olishini emas, balki amaliy hayotiy vaziyatda muammoni hal qila olish qobiliyatini o‘lchaydi.

PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) 4-sinf o‘quvchilarining matnni tushunish va ma’nosini anglash bo‘yicha savodxonligini baholaydi. Unda o‘quvchilar badiiy matn, axborot matni bilan ishlash ko‘nikmalari bo‘yicha tekshiriladi.

TIMSS (Trends in Mathematics and Science Study) 4- va 8-sinf o‘quvchilarining matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha bilim hamda ko‘nikmalarini baholaydi. Asosiy e’tibor nazariy bilim, mantiqiy tafakkur, amaliy masalalar yechish, ilmiy-tadqiqot elementlariga qaratiladi.

Xalqaro baholash tizimlari O‘zbekiston ta’limining kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, o‘quv dasturlarini takomillashtirish, baholash usullarini modernizatsiya qilish imkonini beradi.

Natijalar asosida o‘quv dasturlarini kompetensiyaviy yondashuvga o‘tkazish, amaliy mashg‘ulotlar ulushini oshirish, o‘qituvchilar malakasini xalqaro standartlar asosida rivojlantirish, darsliklarning mazmunini optimallashtirish yo‘nalishlarida tub o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda.

Xalqaro baholash dasturlarida ishtirok etish uchun 997-son qarorni joriy qilionishi, “Xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish agentligi”ning tashkil etilishi, maktablar uchun metodik qo‘llanmalar yaratilishi kabi muhim hujjatlar ta’lim sifati monitoringini tizimli yo‘lga qo‘ymoqda.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida matnni tahlil qilish va mazmunini umumlashtirish (PIRLS talabi), kundalik hayotga oid masalalarni hal qilish (PISA kompetensiyasi), mantiqiy fikrlash va matematik muloqot ko‘nikmalari (TIMSS talabi), muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish kabi kompetensiyalar rivojlanmoqda.

Xalqaro baholash talablari asosida darslarda interfaol metodlar (“Venn diagrammasi”, “Aqliy hujum”, “INSERT”, “Klaster”), tadqiqotga asoslangan topshiriqlar, real hayotiy

vaziyatlarni aks ettiruvchi misollar, matn ustida chuqur ishlash texnikalari ko‘proq qo‘llanila boshladi. Bu esa o‘quvchilarni faqat yodlashga emas, balki fikrlashga undaydi.

Xalqaro tadqiqotlarga tayyorlov jarayoni boshlang‘ich sinf o‘qituvchilaridan zamonaviy metodlarni bilish, kompetensiyaviy yondashuv, analitik fikrlash, dars jarayonida diagnostik baholash ko‘nikmalarini talab qilmoqda.

Shu sababli o‘qituvchilar uchun maxsus seminarlar, modul kurslar, malaka oshirish dasturlari muntazam o‘tkazilmoqda.

Boshlang‘ich ta’lim uchun xalqaro baholash dasturlari asosida yaratilgan o‘quv topshiriqlarining afzallik tomonlaridan biri o‘quvchilarda tanqidiy va mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi, matn bilan ishlash malakasini kuchaytiradi. Matematik qaror qabul qilish ko‘nikmasini o‘stiradi. Bilimlarni hayotiy vaziyatlarda qo‘llashni o‘rgatadi. O‘quv monitoringini obyektiv amalga oshirishga imkon yaratadi.

O‘zbekistonning PISA, PIRLS va TIMSS kabi xalqaro baholash dasturlarida ishtirok etishi ta’lim sifatini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Ushbu dasturlar boshlanganidan so‘ng ta’lim mazmuni, o‘quv dasturlari va darsliklar kompetensiyaviy yondashuv asosida yangilanmoqda. Eng asosiysi, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida funksional savodxonlik, mantiqiy fikrlash, matematik va o‘qish ko‘nikmalari sezilarli darajada rivojlanmoqda.

Xalqaro baholash tizimlarining joriy etilishi o‘qituvchilar malakasining oshishiga, zamonaviy o‘qitish metodlarining qo‘llanishiga va dars sifati yaxshilanishiga sabab bo‘lmoqda. Shu bois, xalqaro baholash tizimlari O‘zbekiston ta’lim tizimining globallashuv jarayoniga moslashuvi, ta’lim sifatini oshirish va raqobatbardosh yoshlarni tarbiyalashda muhim o‘rinni egallaydi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantipish bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni. https://lex.uz/docs /3107036
2. Kistabayeva Gulchexra Djurakulovna. MAKTAB O’QUVCHILARINI MATEMATIKA DARSLARIDA KREATIV FIKRLASHGA O’RGATISH. Journal of Education, Ethics and Value Vol. 3, No. 05, 2024 ISSN: 2181-4392, 97-100b]
3. Rokhataliyeva, A. N. (2022). Teaching of mathematics on the basis of advanced international experiences. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, *3*(7), 50-55.
4. Rokhatalievna, A. N., & Kadiraliyevich, A. A. (2022). Didactic foundations of improving the creative activity of future mathematics teachers by means of information and communication technologies. *Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning*, *3*(7), 1-5.
5. Roxataliyevna, A. N., & G’ulomovna, Y. S. (2021). Teaching Children Problem-Solving in Preschool. *Middle European Scientific Bulletin*, *9*.
6. Pedagogik kompetentlilik va kreativlik asoslari” moduli bo‟yicha o’quv-uslubiy qo’llanma.:– Toshkent 2015,40 bet
7. Абдуллаева, Н. Р. Математикани ўқитишда ўқувчиларни креатив фаолиятини ривожлантиришнинг дидактик тамойиллари. *“JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH” VOLUME 1, ISSUE 6*, 119.
8. Shoqosim o'g'li, A. U., Rahimovna, T. O. R., Mamasiddiqovna, A. N., Mamasoliyevich, T. R., & Roxataliyevna, A. N. (2022). Technologies For Improving The Quality Of Educational Results Of Schoolchildren By Developing A Personalized Model Of Teaching Mathematics Through Interactive Stories. *Journal of Positive School Psychology*, *6*(11), 1354-1365.